

Kreditning to'liq qiymati -

_____ %

(_____)

_____ - sonli mikroqarz shartnomasi

_____ shahar _____

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki nomidan _____ yildagi № _____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Bankning _____ filiali boshqaruvchisi _____, bundan buyon matnlarda **“Bank”** deb nomlanadi, birinchi tarafdin, _____ manzilda yashovchi fuqaro _____ bundan buyon matnda **“Qarz oluvchi”** deb nomlanadi, ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Bank Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan miqdorda va shartlarda mikroqarz ajratish, qarz oluvchi esa olingan mikroqarzni belgilangan muddatda Bankka qaytarish va pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foiz(penya, jarima)larni to'lash majburiyatini oladi.

2. Shartnoma bahosi va hisob-kitob qilish tartibi.

- 2.1. Mikroqarz summasi: _____ (_____) so'm.
- 2.2. Mikroqarzdin foydalanish muddati: _____ (_____) oy muddatga.
- 2.3. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni kaytarish muddati ushbu shartnomaning ilovasi va ajralmas qismi bo'lgan qaytarish jadvali (1-ilova) asosida amalga oshiriladi.
- 2.4. Mikroqarz summasining so'nggi qaytarish sanasi: _____
- 2.5. Mikroqarz bo'yicha foiz stavkasi: yillik _____ % (_____)
- 2.6. Foizlarni to'lash muddati: Mazkur shartnomaga ilova qilingan so'ndirish jadvalida belgilangan muddatda.
- 2.7. Mikroqarz jismoniy shaxsga naqd pulsiz shaklda bank kartasiga o'tkazish yo'li bilan ajratiladi.
- 2.8. Mikroqarz va unga hisoblangan foiz (jarima,penya)larni qaytarish Qarz oluvchining istagiga ko'ra, bankning avtoto'lov xizmati, bank kartasi, naqd pul, pul o'tkazish yo'li bilan va qonunchilik hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa to'lov usullari bilan amalga oshiriladi. Bunda, kelib tushgan mablag'lar agar mablag' kredit qarzdorligini qaytarish grafigi bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikni (tani, fozi) qoplash uchun yetarli bo'lsa birinchi navbatda neustoyka, muddati o'tgan qarz foizi, muddati o'tgan qarz tani, muddatli qarz foizi so'ngra muddatli qarz tanini so'ndirishga yo'naltiriladi. Agar pul mablag'i yetarli bo'lmasa qonunchilikda belgilangan tartibda.
- 2.9. Agar amalga oshirilgan to'lov summasi qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:
 - a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
 - b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
 - c) neustoyka(jarima, penya);
 - d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari
- 2.10. Mikroqarzdin foydalanganlik uchun foizlar ushbu shartnomada belgilangan nominal stavkada mikroqarz qoldig'iga nisbatan kunlik hisoblab boriladi.

_____ Qarz oluvchi

_____ Kafil

_____ Bank

3. Tomonlarning majburiyatlari.

3.1. Qarz oluvchining majburiyatlari:

3.1.1. Mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida (**1-ilova**) belgilangan muddatlarda to'lash;

3.1.2. Mikroqarzdin foydalanish davomida mikroqarzdning asosiy tamoyillari: muddatlilik, qaytarishlilik, to'lovlilikka hamda ta'minlanganlikka rioya qilish;

3.1.3. Bankka yashash manzilini, telefon raqamlarini (uyali, uy, ish) elektron pochta manzilini, ijtimoiy tarmoqlardagi pochta manzillarini (Telegram, WhatsApp, IMO va boshqalar) haqidagi haqqoniy ma'lumotlarni taqdim etish. Ushbu manzillar orqali olingan har qanday ma'lumot Bank uchun qonuniy kuchga ega;

3.1.4. O'zining ish joyi, yashash joyi, familiyasi va ismi o'zgarganda, telefon raqamlari, elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqdagi manzillari o'zgarganda yoki mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar to'g'risida yozma shaklda yoki o'zlari uchun maqbul bo'lgan boshqa aloqa kanallari orqali 5 (besh) kun ichida Bankka xabar berish. Ushbu talab bajarilmasligi oqibatida kelib chiqqan salbiy holatlarga Qarz oluvchi javobgar hisoblanadilar;

3.1.5. Garovga qo'yilgan mulkka shikast yetkazilganda, turli sabablarga ko'ra yaroqsiz holga kelib qolganda yoki mikroqarz ta'minoti sifatida uchinchi shaxslar kafilligi olingan holda kafil to'lovga qobiliyatini yo'qotgan taqdirda ya'ni ishsiz qolganda, vafot etganda yoki turli sabablarga ko'ra mehnatga yaroqsiz bo'lib qolgan taqdirda zudlik bilan bankka xabar berish va garov mulkini 10 (o'n) kun ichida yuqori likvidli boshqa mulkka almashtirish;

3.1.6. Kreditni qaytarish jadvaliga nisbatan ortiqcha to'langan mablag' kelgusi davrlarda so'ndirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, u holda to'lovni amalga oshirishdan 3(uch) kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qilish;

3.1.7. Shaxsiy (Kafilni xam) bank kartasini bankning "Avto-to'lov" xizmatiga ulash;

3.1.8. Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa majburiyatlar.

3.2. Bankning majburiyatlari:

3.2.1. Qarz oluvchining huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan kredit berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida Qarz oluvchiga ishonchli hamda to'liq axborotni taqdim qilish;

3.2.2. Shartnomaning ta'minotga oid shartlari bajarilgach, uch ish kunida kredit berish;

3.2.3. Qarz oluvchi nomiga ssuda hisob raqamlarni ochish;

3.2.4. Qarz oluvchini kreditni muddatidan ilgari undirish holati va sabablari haqida oldindan xabardor qilish;

3.2.5. Qarz oluvchining tegishli so'rovi bankda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida Qarz oluvchi tomonidan berilgan ariza va Qarz oluvchiga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjatni hamda bir ish kuni ichida shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etish;

3.2.6. Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchidan majburiyatlari bajarilmasligi sabablari, holati, muddati, summalari, tarkibi haqida so'rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka (jarima, penya) qo'llanishi natijasida xarajatlar summasi ortishi ehtimoli haqida ogohlantirish;

3.2.7. Shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, Qarz oluvchi bilan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib, Qarz oluvchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;

3.2.8. Mazkur shartnomaning 3.1.6 – bandiga muvofiq Qarz oluvchining arizasi mavjud bo'lmagan holda, kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushgan taqdirda, ushbu mablag'ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirish xamda kelgusi ish kundan qoldiq summaga nisbatan foiz hisoblash;

3.2.9. Ushbu shartnoma amal qilish davrida Qarz oluvchining so‘rovi olinganidan so‘ng bir ish kuni ichida unga quyidagi axborotlarni yozma shaklda oyda bir marta bepul taqdim etish: kreditlash limiti, kredit bo‘yicha to‘langan pul mablag‘lari summasi, asosiy summa bo‘yicha qarz qoldig‘i, navbatdagi to‘lovlarning miqdori, tarkibi va muddatlari (to‘lovlar jadvali), kreditni muddatidan oldin qisman yoki to‘liq so‘ndirish istagi bildirilgan taqdirda to‘lash lozim bo‘lgan summalar miqdori, muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik miqdori va tarkibi, kelib tushayotgan pul mablag‘lari kredit bo‘yicha qarzni so‘ndirishga yo‘naltirilishi haqida axborotlar;

3.2.10. Qarz oluvchi shartnoma bo‘yicha barcha to‘lov majburiyatini to‘liq bajargan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo‘yicha garov mulkini taqiqdan chiqarish hamda garov mulkiga nisbatan bankning huquqlari to‘g‘risidagi yozuvni garov reestridan o‘chirish;

3.2.11. Shartnomada nazarda tutilgan mikroqarzni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, bu haqda tegishli qaror qabul qilingan sananing ertasidan kechikmasdan Qarz oluvchiga yozma xabarnoma yuborish;

3.2.12. Kredit shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan foiz stavkasi o‘zgarganda yoki mazkur shartnomaning 3.2.8.-bandida belgilangan vaziyat yuz bergan taqdirda, kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirish va Qarz oluvchiga taqdim etish. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo‘qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi;

3.2.13. Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa majburiyatlar.

4. Tomonlarning huquqlari.

4.1. Qarz oluvchining huquqlari:

4.1.1. O‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan mikroqarz berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to‘liq axborot olish.

4.1.2. Shartnoma tuzilgan kundan e‘tiboran ikki hafta ichida Bankni yozma ravishda xabardor etish orqali foydalanilmagan mikroqarzdandan voz kechish. Bunda, voz kechish kunigacha qilingan xarajatlar Qarz oluvchi zimmasida qoladi;

4.1.3. Mikroqarzni muddatidan oldin qaytarish. Bunda, mikroqarz uchun foizlar mikroqarz to‘liq qaytarilgan kungacha mazkur shartnomaning 2.2.-bandiga muvofiq hisoblanadi;

4.1.4. Mikroqarz ajratish va hisob-kitoblar bo‘yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki me‘yoriy hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida Bankdan ma‘lumot olish;

4.1.5. Bankdan majburiyatlarning o‘z vaqtida va lozim darajada bajarilishini talab qilish, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplashni talab qilish;

4.1.6. Olingan kredit to‘lovlarini masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda amalga oshirish;

4.1.7. Mikroqarz to‘lovlari shaklini hamda mikroqarzni qaytarish turini (differensial va annuitet), shuningdek sug‘urta yoki baholash xizmatlarini mustaqil tanlash.

4.1.8. Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa huquqlar.

4.2. Bankning huquqlari:

4.2.1. Qarz oluvchi shartnoma tuzilgan kundan e‘tiboran bir oy ichida mikroqarzdandan foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor etish orqali shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;

4.2.2. Mikroqarz berish va shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida va lozim darajada bajarishni talab qilish, zarur hujjatlarni Qarz oluvchidan so‘rab olish;

4.2.3. Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyiligiga shubha tug‘ilganida, monitoring o‘tkazish maqsadida, shuningdek muddati o‘tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi/Kafilga qo‘ng‘iroq qilish yoki yozma murojaat berish;

4.2.4. O‘zaro muzokaralarni (bayonnoma shaklida, telefon qo‘ng‘iroqlari, audio, video va boshqa istalgan usullarda) yozib olish, shuningdek ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda murojaatni tasdiqlash uchun ushbu dalilni ishlatish;

4.2.5. Qarz oluvchi tomonidan mikroqarz to‘lovlari bo‘yicha kechikish mavjudligi to‘g‘risida ish beruvchisiga yozma ravishda xabar berish;

4.2.6. Mikroqarz shartnomasi bo‘yicha Qarz oluvchining majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, har qanday qonuniy choralarni ko‘rishga, shu jumladan Qarz oluvchining har qanday mol-mulki va mulkiy huquqlaridan majburiy ravishda undirib olish;

4.2.7. Qarz oluvchining joriy yoki muddati o‘tgan majburiyatlari (qarzlari)ni so‘ndirish maqsadida, mablag‘larni quyidagi usullar yordamida hisobdan chiqarish:

a) Qarz oluvchining har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga akseptsiz to‘lov talablarini qo‘yish;

b) Qarz oluvchining Bankdagi(PKsini) bank hisobvaraqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri debetlash yo‘li bilan.

4.2.8. Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa huquqlar.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Qarz oluvchining javobgarligi:

5.1.1. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, Bankka butun kechiktirilgan muddat davomida kechiktirilgan to‘lovlar uchun shartnomaning 2.5-bandida belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida oshirilgan foiz to‘laydi.

5.1.2. Asosiy qarz va foizlarni o‘z muddatida to‘lamagan taqdirda, to‘lov kechikkan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning **0,4%** foizi miqdorida Bankka penya to‘laydi.

5.1.3. Shartnoma bo‘yicha hisoblangan penya va jarimalarni to‘lash/yoki ixtiyoriy to‘lash, taraflarni shartnomada ko‘rsatilgan o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Shuningdek, ikkinchi tarafni majburiyatlar bajarilmaganligi sababli tegishli choralar qo‘llash huquqidan mahrum qilmaydi.

5.1.4. Qarzdorlik bo‘yicha hisoblangan foizlar va neustoykalarining eng ko‘p summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan oshib ketmasligi lozim.

5.2. Bankning javobgarligi:

5.2.1. Mikroqarz mablag‘larini berish majburiyatini bajarmaganida yoki o‘z vaqtida bajarmaganida Qarz oluvchiga kechiktirilgan to‘lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,1 %i miqdorida penya to‘laydi.

5.2.2. Qarz oluvchi mazkur shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatlarini to‘liq bajargach, Bank ushbu shartnomaning 3.2.11-bandidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida yoki to‘liq bajarmagan taqdirda, kechiktirilgan har bir kun uchun garovga olingan mulk qiymatining 0.1 foizi miqdorida penya to‘laydi.

5.2.3. Shartnoma bo‘yicha hisoblangan penya va jarimalarni to‘lash/yoki ixtiyoriy to‘lash, taraflarni shartnomada ko‘rsatilgan o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Shuningdek, ikkinchi tarafni majburiyatlar bajarilmaganligi sababli tegishli choralar qo‘llash huquqidan mahrum qilmaydi.

5.2.4. Qarzdorlik bo‘yicha hisoblangan foizlar va neustoykalarining eng ko‘p summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan oshib ketmasligi lozim.

6. Shartnomani bekor qilish asoslar.

6.1. Qarz oluvchi(Kafil)ni Bank qarz ajratishdan avval mavjud bank kartalarini “Avto-to‘lov” xizmatiga ulash majburiyati haqida ogoxlantirishi lozim.

6.2. Qarz oluvchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.1.7-bandi ijrosi ta‘minlamagan taqdirda, bank qarz berishni rad etishga haqli.

_____ Qarz oluvchi

_____Kafil

_____Bank

7. Kredit ta'minoti.

7.1. Mazkur shartnoma asosida ajratilgan mikroqarzning qaytarilishi uchun asosiy ta'minot _____ bilan ta'minlanadi.

7.2. Kafillik shartnomasi bankning ichki me'yoriy hujjatlariga asosan rasmiylashtiriladi.

7.3. Kreditning ta'minoti 3.1.5.-bandi talablari doirasida sug'urtalanib, sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi bankka taqdim etiladi.

Garov mulki bo'yicha garov reestriga yozuvlar kiritiladi va garov mulkiga nisbatan taqiq qo'yiladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi hamda boshqa qoidalar.

8.1. Shartnoma taraflar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi va taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amalda bo'ladi.

8.2. Ushbu shartnomaning shartlarini o'zgartirish yoki uni bekor qilish qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib, taraflarning vakolatli vakillari imzolaganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o'zgartirish, qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

8.3. Quyidagi asoslar yuzaga kelganida, Bank mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va undiruvni garovdagi yoki boshqa likvidli mol-mulkarga qaratishi mumkin:

a) Qarz oluvchi tomonidan shartnoma tuzishda yoki kredit operatsiyalarini bajarish vaqtida Bankka noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish faktlari aniqlanganda;

b) Qarz oluvchi/Kafilning psixo-nevrologik dispanserlariga, psixiatrik klinikalarga, giyohvandlik va alkogolizmdan davolanish klinikalariga joylashtirilishi to'g'risida ma'lumot olingan taqdirda;

c) kreditni qaytarish jadvalini kamida uch va undan ortiq marotaba buzgan taqdirda;

d) kredit va unga hisoblangan foizlarni kreditni qaytarish jadvalida belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga sababsiz kechiktirilganida;

e) Garov mulkini o'z muddatida sug'urtalanib, garovga taqdim etilmaganida;

f) Qarz oluvchi garovga olingan mulkni monitoring qilinishiga to'sqinlik qilganida, uni yashirganida, bankka taqdim qilmaganida;

g) Bank tomonidan yuqoridagi asoslarga ko'ra, kreditni muddatidan oldin to'liq qaytarish talabi asosida undiruvni qarzdor xisobidan va kredit ta'minotiga qaratish yuzasidan tegishli sudga ariza/da'vo ariza bilan murojaat qilingan hollarda, sud muhokamalariga qadar yoki sud muhokamalari jarayonida qarzdor tomonidan muddati o'tgan kredit qarzni to'lab qo'yishligi da'vogar (bank) tomonidan da'voni qaytarib olishga yoki da'vodan voz kechishga asos bo'lmaydi;

h) Qonunchilikda belgilangan boshqa asoslarga ko'ra.

9. Maxfiylik

9.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

9.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma rozilgisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi.

9.3. Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

10. Alohida shartlar, kafolatlar va bildirishlar

10.1. Mazkur shartnomani imzolash bilan Qarz oluvchi Bankka uning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishga quyidagi hollarda rozilik beradi: Qarz oluvchi

_____ Qarz oluvchi

_____Kafil

_____Bank

manfaatdor bo'lgan shartnomalarni tuzishda va ijrosini ta'minlashda; Qarz oluvchining shartnomada belgilangan huquqlari va majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashda, ularning bajarilishini talab qilish va qarzдорlikni undirishda; ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida; shartnomaning ijrosini ta'minlash bilan bog'liq ma'lumotlarni Qarz oluvchi/Kafilga yetkazishda.

10.2. Ushbu bilan Qarz oluvchi to'lov jadvali asosida kredit to'lovi bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa yashash manzillarga (rekvizitlarga), barcha aloqa vositalaridan foydalangan holda yuborilishiga rozilik beradi.

10.3. Bank tomonidan yuborilgan SMS xabarnomalar, qilingan qo'ng'iroqlar, yuborilgan ogoxlantirish xatlari va boshqalar qarzni qaytarishning zarur choralari bo'lib, sud va boshqa organlarda dalil bo'lib xizmat qiladi.

10.4. Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so'ng 3 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma'lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o'tkazishga mijoz o'z roziligini beradi.

11. Fors-major holatlari.

11.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan taxdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan xujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

11.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

11.3. Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank ish kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

11.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

11.5. Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish.

12.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tarafning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi. Ana shunday taklif bildirilganida, ikkinchi taraf, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari bunday takliflarni rad qilishi shart.

12.2. Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tarafga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

12.3. Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

12.4. Pora evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

13. Nizolarni hal etish tartibi va boshqa shartlar.

13.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

13.2. O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf yuborgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur hujjatlarda ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

13.3. Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafdagi shaxsan topshirilishi, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali yuborilishi mumkin.

13.4. Tinch yo'li bilan hal etilmagan nizolar BXO joylashgan hududdagi sudga hal etiladi.

13.5. Mazkur shartnoma va uning ilovasi bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Qarz oluvchida saqlanadi.

14. Tomonlarning tasdig'i, manzillari, to'lov rekvizitlari va imzolari.

Qarz oluvchi mikroqarz to'g'risidagi barcha ma'lumotlar shartnoma tuzilishidan avval unga bepul taqdim etilgani va ushbu shartnoma imzolanmasidan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketishga haqli ekani haqda ogohlantirilganligini o'z imzolari tasdiqlaydi.

Bank	Qarz oluvchi
Manzil: _____	Manzil: _____
MFO: _____	Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:
Bank: _____	Seriya: _____ № _____
Boshqaruvchi: _____	Kim tomonidan berilgan: _____
_____ (imzo)	Qachon berilgan: _____
	Fuqaro: _____
	_____ (imzo)

www.hamkorbank.uz
tel: 0-800-1-200-200

Hurmatli qarz oluvchi! Kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Sizing kredit tarixingizda majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi to'g'risida ma'lumotlar shakllanadi va bu esa o'z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shartnoma mazmuni va mohiyati bilan to'liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

_____ "_____" _____ 20 __ yil
(imzo) (Kredit oluvchi FISH)

Shartnoma mazmuni va mohiyati bilan to'liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

_____ "_____" _____ 20 __ yil
(imzo) (Kafilning FISH)

1-ilova

_____ kungi imzolangan № _____ - sonli mikroqarz shartnomasi bo'yicha qarz va foizlarni qaytarish jadvali

№	To'lov kuni	Muddati o'tadigan kun	Asosiy kredit to'lov summasi	Xisoblangan foizning kaytarilish summasi	Jami to'lov	Sundirilguncha kredit qoldig'i summasi	Sundirilgandan keyingi kredit qoldig'i summasi
1							
2							

_____ Qarz oluvchi

_____ Kafil

_____ Bank

Ushbu qaytarish jadvalida ko'rsatib o'tilgan muddatlarda to'lovlarni amalga oshirish majburiyati olaman. Bankning "Avto-to'lov" xizmati orqali shaxsiy bank kartamdan qaytarish jadvaliga asosan kredit mablag'ining oylik to'lovlarni undirib olinishiga qarshiligim yo'q.

ID: _____

Parol: _____

MBXO/UBXO boshlig'i

(imzo)

Kredit oluvchi

(imzo)

Kredit mutaxassisi

(imzo)

_____ yil